



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



ANDIJON VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI


2023- YIL YANVAR-IYUL

ANDIJON VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- avgust holatiga Andijon viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2112 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 763 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 36,0 % Andijon shahrida joylashgan.

2023- yil 1-avgust holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Andijon sh.	763
Xonobod sh.	44
Oltinko'l	109
Andijon	147
Baliqchi	70
Bo'ston	90
Buloqbo'shi	58
Jalaquduq	42
Izboskan	101
Ulug'nor	43
Qo'rg'ontepa	69
Asaka	185
Marhamat	87
Shahrixon	152
Paxtaobod	64
Xo'jaobod	188

1 178

Bino va inshootlar qurilishi

297

Fuqarolik obyektlarini qurish


637

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Andijon shahrida 763 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 36,0 %), Xo'jaobod tumanida – 188 ta (8,9 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-iyul uchun)

2023- yilning yanvar-iyul oylarida, Andijon viloyatida jami 4050,9 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi.




Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati – bu, oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2023- yilning yanvar-iyul oylarida Andijon viloyatida qurilish ishlari

Shahar va tumanlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati,
mlrd so'm va foizda




2023- yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida xususan, Andijon shahri (1403,7 mlrd so'm), Andijon tuman (496,0 mlrd so'm) va Shahrixon tumanida (297,3 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-iyul oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 73,8 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 98,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,7 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 96,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,5 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 200,2 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 67,5 % yoki 2734,8 mlrd soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

77,4
mlrd soʻm

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 77,4 mlrd soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 2,8 % ni tashkil etdi.

2,8 %

1 713,2
mlrd soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 713,2 mlrd soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 62,7 % ni tashkil etdi.


62,7 %

944,2
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 944,2 mlrd soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,5 % ni tashkil etdi.

34,5 %

Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2023- yilning yanvar-iyul oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd so'mda*


	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta quollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
Andijon viloyati	2734,8	100,0
Andijon sh.	909,5	33,3
Xonobod sh.	94,7	3,5
Oltinko'l	169,1	6,2
Andijon	267,0	9,8
Baliqchi	69,6	2,4
Bo'ston	130,3	4,8
Buloqboshi	45,3	1,7
Jalaquduq	73,7	2,7
Izboskan	80,1	2,9
Ulug'nor	55,1	2,0
Qo'rg'ontepa	142,0	5,2
Asaka	103,6	3,8
Marhamat	114,4	4,2
Shahrixon	211,2	7,7
Paxtaobod	142,7	5,2
Xo'jaobod	126,5	4,6

2023- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Andijon shahri (909,5 mlrd so'm), Andijon tuman (267,0 mlrd so'm), Shahrixon tumanida (211,2 mlrd so'm) va Oltinko'l tumanida (169,1 mlrd so'm) qayd etildi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish, mlrd so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 1,3 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,4 % punktga ko'payib, 67,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,7 % punktga kamayib, 31,6 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi


Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd soʻmda*



Maʼlumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Shahrixon tumanida bajarilgan qurilish ishlarining 82,1 %, Marhamat tumani (81,5 %) va Paxtaobod tumani (80,5 %) da kuzatildi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, *mlrd so'm*




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 4,8 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,0 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,0 % punktga ko'payib, 95,2 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd soʻmda*




Maʼlumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinkoʻl tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 25,0 %), Xonobod shahrida (25,6 %) va Andijon tumanida (20,9 %)da kuzatildi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd so'm




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi va 1,1 % ni tashkil etdi.

Qolgan 98,9 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd so'mda*



Ma'lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinko'l tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 14,8 %), Xonobod shahrida (14,2 %) va Bo'ston tumanida (11,7 %) kuzatildi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –
65,2 %

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –
106,7 %

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –
101,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 77,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 65,2 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,2 % ga kamayib, 1,9 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 74,8 % to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,1 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ni tashkil etgan holda 3029,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.



2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar


Shahar va tumanlarning hajmi, mlrd soʻmda



Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (1164,2 mlrd soʻm), Andijon tumanida (425,4 mlrd soʻm) va Shahrixon tumanida (239,4 mlrd soʻm) qayd etildi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 23,3 % ni yoki 944,2 mlrd soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi. Shundan 785,7 mlrd soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 37,9 mlrd soʻmni va 97,4 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 120,6 mlrd soʻmni va 104,2 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor


Shahar va tumanlarning hajmi, mlrd soʻmda



Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (182,4 mlrd soʻm), Paxtaobod tumanida (112,8 mlrd soʻm) va Asaka tumanida (94,6 mlrd soʻm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-iyul oylaridagi hajm, mlrd so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 160,0 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3 890,9 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,0 % va 96,0 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod shahar (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %), Oltinko'l tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %) va Paxtaobod tumanida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel.: 74 224-80-00 (6020)